

O'qish darslarini tashkil etishda pedagogik texnologiya va kompetensiyalardan foydalanishning shakllari.

*Surxondaryo viloyati Termiz shahri 6- sonli umumiy o'rta ta'lim maktabining
boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

Raxmatova Dilfuza Bo'riyevna

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'qish darslarini tashkil etishda pedagogik texnologiya va kompetensiyalardan foydalanishning shakllari haqida fikr-mulohazalar bildirildi.

Kalit so'zlar: o'qish, kompetensiya, maqsad, pedagogik texnologiyalar, axborot kommunikatsiya, DTS, darslik

Yurtimizda ta'lim mazmuniga alohida e'tibor qaratilib, DTS o'quv dasturlarining yangi tahrirdagi variantlari tajriba sinovdan o'tkazilmoqda, pedagogik texnologiyalar asosida o'quv jarayonining samaradorligi oshirish maqsadida pedagogik texnologiyalardan, axborot kommunikatsiya vositalaridan foydalanilmoqda. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qitishda o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish, bilimlarni keng va oson o'zlashtirish maqsadida pedagogik texnologiyalarning usul, vosita va shakllarini to'g'ri tanlab, ulardan foydalanish muhim sanaladi. O'qish darslarini tashkil etishda pedagogik texnologiyalarning ko'pgina metodlaridan foydalaniladi. Bola hayotida bog'chadan so'ng maktabning dastlabki davrlari muhim o'rin tutadi. Shu bois boshlang'ich ta'lim davri ta'lim jarayonidagi eng mas'uliyatli davrdir. Bu paytda bolaning savodi chiqishi bilan birga, uning dunyoqarashi shakllanadi, tafakkur qilish malakasi rivojlanadi. Bu davrda bolaning zihnini o'stirishga qaratilgan har bir mashg'ulot bola aqlining tarkib topishi va rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun ham bu davrda, avvalo, ta'lim jarayonini qiziqarli, ta'sirli qilib tashkil etishga, motiv

hosil qilish va uni rivojlantirishga e'tibor qaratish lozim. Chunki bu muddat bolaning o'yin faoliyatidan aqliy faoliyatga, ya'ni o'quv faoliyatiga o'tganligi bilan xarakterlanadi. Bolaning o'quv faoliyatini rivojlantirishda turli o'yinlardan foydalanish katta ahamiyat kasb etadi. Bolalar o'yin orqali o'z bilimlarini mukammallashtiradilar va uni chuqur o'zlashtiradilar. Shu jihatdan qaraganda, ta'lim jarayonida qo'llanadigan didaktik o'yinlarning roli beqiyosdir. Didaktik o'yinlar ta'lim jarayoni samaradorligini oshiradi, ta'lim jarayonida o'quvchilar faolligini, o'qish motivlarini rivojlantiradi. O'qish motivlari ta'lim jarayonini pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etishda ham muhim o'rin tutadi. Didaktik o'yinlar boshlang'ich sinflarda ta'limning samarali borishiga o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini muvaffaqiyatli boshqarishga ham katta yordam beradi, ya'ni didaktik o'yinlar vositasida nazariy bilimlar oson egallanadi, o'quvchilarning bilim olishga qiziqishlari ortadi. Didaktik o'yinlar nafaqat boshlang'ich sinflarda, balki ta'limning keyingi bosqichlarida ham o'quvchilarning bilimga bo'lgan ishtiyoqlari rivojiga katta turtki bo'lishi mumkin. Ayniqsa qiyin o'zlashtiruvchi o'quvchilarning bilish imkoniyatlarini oshirishga bunday oyinlar samarali ta'sir ko'rsatadi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, boshlang'ich sinflar uchun yaratilayotgan o'quv qo'llanmalarida shu sohaga oid materiallar tanqisligi ko'zga tashlanib turadi. Hozirgi davrda pedagogik texnologiyalar asosida ta'limni tashkil etishga katta e'tibor qaratilmoqda. Pedagogik texnologiya o'quvchilar qobiliyati, imkoniyati va ehtiyojlarini hisobga olgan holda, ta'lim shakllarini amalga oshirish uchun ko'zlangan natijaga erishishda eng qulay yo'l va usullarni tanlash va ishlab chiqish mahorati ekan. Haqiqatdan ham ta'lim jarayoni unumdorligini oshiradi, o'quvchilarning mustaqil fikrlash jarayonini shakllantiradi, o'quvchilarda bilimga ishtiyoq va qiziqishni oshiradi, bilimlarni mustahkam o'zlashtirish, ulardan amaliyotda erkin foydalanish ko'nikma va malakalarini shakllantiradi.

Shuning uchun ham ta'lim ishiga texnologik yondashuv katta ahamiyatga ega.

Ta'lim ishiga texnologik yondashuv:

— ta'lim jarayoni maqsadini aniq belgilashni;

- o`qish-o`qitish jarayonini uzviy bog`liq bosqichlar, fazalar, amallarga ajratish, bo`lishni;
- ta`lim jarayonida mo`ljallangan natijaga erishish uchun bajariladigan harakatlarni muvofiqlashtirish, ketma-ket, bosqichma-bosqich amalga oshirishni;
- loyihalashtirilgan ishlar, amallarning barcha- sini bir xil bajarishni nazarda tutadi.

Pedagogik texnologiyada ta`lim jarayonining maqsadini belgilash muhim bo`lib, u rejalashtirilgan natijalarni kafolatlashi lozim. Shuning uchun ham o`qituvchilar maqsadni aniq belgilashga alohida e`tibor qaratishlari zarur. Har bir o`qituvchi avvalo o`zi o`qitadigan o`quv predmeti va har bir o`tiladigan darsi maqsadini aniq belgilashi kerak.

Shuni ta`kidlash lozimki, belgilangan maqsad asosida o`tkaziladigan didaktik jarayonning aniq loyihasi ishlab chiqilsa, uni amalga oshirish osonlashadi.

Didaktik jarayonning samarali o`tishida motivlar muhim o`rin tutadi. Chunki qiziqib, aniq maqsad asosida egallangan bilimlarga samarali bo`ladi. Motiv kishini biror ish-harakatni bajarishga undovchi da`vat, turtki. Shunday ekan, muallimlar bolada o`qish motivlarini hosil qilishga intilishlari va uni o`stirishlari kerak. Motivlar o`quvchilarni bilim, ko`nikma va malakalarni oson egallashlariga yordam beradi. Motiv bolada bilim olishga ishtiyoq va qiziqish uyg`otadi. O`qituvchilar bundan mohirlik bilan foydalanishlari va o`quvchilarga beriladigan mustaqil ishlar tizimini ishlab chiqishlari foydadan xoli bo`lmaydi. Boshlang`ich sinf o`qituvchilarining har bir darsni tashkil etish uchun turli didaktik o`yinlardan foydalanishlari yaxshi samara beradi. Chunki 6-7 yoshli bolalar hayotida maktab davri ancha murakkab davr bo`lib, bolalar oldida jiddiy sinov turadi. Bola yangi hayot - maktab hayotiga kirib boradi. Endi u yangi jamoaning a`zosi ekanligini his etishga, intizomga bo`ysunishga, yangi rejimga moslashishga majbur bo`ladi. Bola yosh bo`lishiga qaramay, endi uning maktabda oqish, uy vazifalarini bajarish, murakkab materiallarni o`rganish kabi zarur yumushlari ko`p. Muhimi, o`yindan maktabga, kundalik majburiy va davomli mehnatga o`tish bola hayotida tub

burilishdir. Hatto maktabgacha tarbiya muassasalaridan kelgan bolalar uchun ham bu oson kechmaydi. Uydan maktabga kelgan bolalarga esa yana ham qiyin. Ayniqsa, sinfda 40—45 daqiqalik darsda o`tirish, tinglash va topshiriqlarni bajarish, uzoq aqliy mehnat bolani tez toliqtiradi. Bola maktabdan, o`qishdan sovib ketishi mumkin. Shuning uchun ham o`qituvchilar bolalarning maktabdagi hayotini qiziqarli tashkil etishga intilishlari, motiv hosil qilish va uni rivojlantirishga harakat qilishlari lozim. Motiv o`z- o`zidan hosil bolmaydi. Uni bolalar yoshiga va psixologik xususiyatlariga mos didaktik o`yinlar va mustaqil ishlar vositasida hosil qilish mumkin. Ayniqsa boshlang`ich ta`lim jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda darslarni qiziqarli olib borish natijasida o`quvchilarni darsga jalb etish samarali bo`ladi. Shunday darslarda bolalar diqqati to`liq jalb etiladi, xotirasi yaxshi ishlaydi. Motivlar o`quvchilarning bilimlarini chuqur egallashlariga yordam beradi. Shuning uchun ham boshlang`ich sinf o`qituvchilari ta`lim jarayonini qiziqarli motivlar asosida tashkil etishga e`tibor qaratishlari zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

Abdurahmonova N., O`rinboyeva L. Ona tili / O`qituvchilar uchun metodik qo`llanma / 2-sinflar uchun. – Toshkent: “Ehtremum-press”, 2014. – 80 b.

2. Masharipova U., Umarova M., Boynazarova D., Nabiyeva M. Ona tili / O`qituvchilar uchun metodik qo`llanma / 4-sinflar uchun – Toshkent: “Ehtremum-press”, 2017 – 88 b.

3. Tal`at G`afforova. Boshlang`ich ta`limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Tafakkur, 2011. – 160 b.